



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 166 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarning qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarining raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
Sabina Saitmurodova Olim qizi	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
Komolova Iroda Xamidullayevna	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
G'aniyeva Maloxat Odilovna	
Ruhiy salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
Shasaidova Lola Shamaksudovna	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
Сеитова З. П.	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'g'arak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari	153
Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
Okilova Kamola Sadulloyevna	



9-SINF IQTISODIY VA IJTIMOIIY GEOGRAFIYA DARSLARIDA GIS TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI VA USLUBIY MUAMMOLARI

Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi

Abu Rayhon Beruniy nomidagi

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursini o'qitishda Geografik axborot tizimlari (GIS) texnologiyalaridan foydalanishning didaktik salohiyati tahlil qilingan. Zamonaviy raqamli xaritalar va geoportallarning o'quvchilarda fazoviy tafakkur, tanqidiy tahlil hamda muammoli vaziyatlarni baholash ko'nikmalarini shakllantirishdagi o'rni ilmiy jihatdan asoslangan. Shuningdek, pedagogik amaliyotda GIS dasturlarini joriy etishda uchrayotgan uslubiy muammolar, metodik bo'shliqlar hamda o'qituvchilarning AKT kompetensiyasini oshirish yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, GIS texnologiyalari, raqamli xarita, pedagogik imkoniyat, uslubiy muammo, fazoviy fikrlash, geoportal, AKT kompetensiyasi.

Abstract: This article analyzes the didactic potential of using Geographic Information Systems (GIS) technologies in teaching the course of economic and social geography in the 9th grade of secondary schools. The role of modern digital maps and geoportals in developing students' spatial thinking, critical analysis, and problem-situation assessment skills is scientifically substantiated. The article also discusses methodological problems arising in the implementation of GIS software in pedagogical practice, existing gaps, and ways to improve teachers' ICT competence.

Key words: economic and social geography, GIS technologies, digital map, pedagogical potential, methodological problem, spatial thinking, geoportal, ICT competence.

Аннотация: В статье анализируется дидактический потенциал использования технологий географических информационных систем (ГИС) при обучении курсу экономической и социальной географии в 9-х классах общеобразовательных школ. Научно обоснована роль современных цифровых карт и геопорталов в формировании у учащихся пространственного мышления, критического анализа и навыков оценки проблемных ситуаций. Рассмотрены методические проблемы внедрения ГИС-программ в педагогическую практику, существующие пробелы и пути повышения ИКТ-компетентности учителей.

Ключевые слова: экономическая и социальная география, ГИС-технологии, цифровая карта, педагогический потенциал, методическая проблема, пространственное мышление, геоportal, ИКТ-компетентность.

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida fundamental bilimlarni zamonaviy raqamli muhitga moslashtirish hamda dars jarayonlariga interaktiv texnologiyalarni integratsiyalash ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Xususan, 9-sinf "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" kursi o'quvchilardan nafaqat statik geografik obyektlarni eslab qolishni, balki hududiy iqtisodiy tizimlar, demografik jarayonlar, tabiiy resurslar taqsimoti va global logistik zanjirlarni dinamik tarzda idrok etishni talab qiladi. An'anaviy qog'oz xaritalar makon va zamondagi tezkor iqtisodiy o'zgarishlarni to'liq aks ettira olmayotgani sababli geografiya ta'limini modernizatsiya qilish, darslarda raqamli Geografik axborot tizimlaridan (GIS) foydalanish metodikasini takomillashtirish zarurati kuchaymoqda.

Geografik axborot tizimlari ta'lim oluvchilarga hududlarning iqtisodiy salohiyatini vizuallashtirish, demografik yuklama va resurslar taqsimotini interaktiv qatlamlar yordamida tahlil qilish imkonini beradi. GIS texnologiyalarining pedagogik mohiyati shundaki, ular o'quvchini passiv axborot qabul qiluvchidan faol tadqiqotchiga aylantiradi hamda fazoviy ma'lumotlar ustida izlanish, solishtirish va xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Geografiya ta'limi tizimida innovatsion va raqamli texnologiyalardan foydalanish muammolari bir qator mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlaridan A. S. Baranov va V. D. Suxorukov oliy va o'rta ta'lim muassasalarida geografiya o'qitish metodikasining fundamental asoslarini ishlab chiqqanlar [1, 112-118].

Xorijiy amaliyotda J. J. Kerski maktab geota'limida GIS tizimlarining intellektual salohiyatini ochib bergan [2, 143-152], respublikamizda esa maktab amaliyotida geografik qonuniyatlarni o'rgatish metodikasi T. Mirzaliyev va P. G'ulomov tomonidan tizimlashtirilgan [3, 40-45].

Oliy ta'lim bosqichida GIS tizimlarining funksional xususiyatlari va amaliy qo'llanish doirasi E. Y. Safarov hamda I. M. Musayev darsliklarida batafsil tahlil qilingan [4, 57-83].

Xalqaro miqyosda o'rta maktab tizimida raqamli xaritalarni joriy etishning tashkiliy omillari M. Solem va P. Klein tadqiqotlarida yoritilgan [5, 215-226].

Maktab amaliyotiga raqamli xaritalarni integratsiya qilish hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash masalalari H. Vahobov va N. Alimkulov ishlarida o'z aksini topgan [6, 88-93].

O'quvchilarda motivatsiya va fikrlash doirasini kengaytirishda raqamli modellashtirishning ahamiyati B. West tomonidan asoslangan [7, 76-94].

Maktab geografiya ta'limida raqamli xaritalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish masalalari M. K. Yusupov tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lsa-da [8, 154-159], aynan 9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursi doirasidagi uslubiy muammolar hanzuz kompleks yondashuvni talab etmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, qiyosiy-pedagogik tahlil, metodik modellashtirish hamda umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'qituvchilari o'rtasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalarini statistik baholash metodlaridan foydalanildi. 9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darsliklarining amaldagi raqamli resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi, o'qituvchilarning AKT kompetensiyasi va GIS vositalaridan darsda foydalanish imkoniyatlari pedagogik diagnostika asosida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

9-sinf iqtisodiy geografiya darslarida Google Earth, ArcGIS yoki milliy geoportallar kabi dasturiy vositalardan foydalanish dars samaradorligini oshiradi. O'quvchilar "O'zbekiston iqtisodiyoti" yoki "Jahon aholisi" bo'limlarini o'rganishda turli yillarga oid demografik ko'rsatkichlar, sanoat tarmoqlarining joylashuvi va transport koridorlarini interaktiv xaritada qatlam-qatlam birlashtirib, o'zaro solishtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bunday yondashuv o'quvchilarda PISA kabi xalqaro baholash dasturlari talablariga mos tanqidiy fikrlash, statistik ma'lumotlarni fazoviy modellashtirish va iqtisodiy-geografik sabab-oqibat aloqalarini mustaqil aniqlash kompetensiyalarini shakllantiradi.

Pedagogik amaliyotda o'tkazilgan tahlillar an'anaviy dars uslubi va GIS integratsiyalashgan dars uslubining samaradorlik ko'rsatkichlarini qiyoslash imkonini berdi. An'anaviy metodikada axborot qog'oz xaritalar hisobiga statik va past dinamikaga ega bo'lsa, GIS texnologiyalari ochiq, interaktiv va muntazam yangilanib boruvchi qatlamlarni taqdim etadi. Eng muhimi, dars davomida o'quvchining roli passiv tinglovchilikdan faol tadqiqotchilik va loyihachilik darajasiga ko'tariladi. Bu esa o'quvchilarda fazoviy fikrlashni tizimli rivojlantirishga hamda AKT va matematika fanlari bilan fanlararo integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy maktab ta'limi amaliyotida GIS texnologiyalarini keng joriy etish yo'lida bir qator uslubiy va tashkiliy muammolar mavjud. Eng avvalo, geografiya o'qituvchilarining ma'lum qismi vaqt cheklovi, an'anaviy dars berish qoliqlari yoki professional raqamli-kartografik kompetensiyaning yetarli emasligi sababli GIS vositalaridan to'liq foydalana olmaydi. Aksariyat metodik qo'llanmalarda GIS bilan ishlash bo'yicha aniq didaktik ssenariylar, muammoli vaziyatli keys-topshiriqlar va bosqichma-bosqich o'quv algoritmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu holat o'qituvchilarning darsda faqat tayyor multimedia taqdimotlari bilan cheklanishiga olib keladi.

Mazkur uslubiy muammolarni bartaraf etish uchun maktab geografiya kursiga mo'ljallangan soddalashtirilgan, ochiq kodli va milliy o'quv dasturiga moslashtirilgan bulutli GIS platformalarini yaratish lozim. Pedagogik jarayonda xaritalar bilan ishlash metodikasini mexanik obyekt qidirishdan muammoli-izlanishli ijodiy ishlarga o'tkazish zarur. Masalan, o'quvchilarga xaritada yangi sanoat korxonasini joylashtirishning optimal modelini loyihalash yoki ekologik-demografik xaritalar asosida mintaqaviy muammolarni tahlil qilish kabi interaktiv vizual topshiriqlar berish ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida Geografik axborot tizimlaridan foydalanish o'quvchilarning makoniy-tahliliy ko'nikmalarini shakllantirishda va fanlararo integratsiyani ta'minlashda muhim pedagogik imkoniyatlarga ega. Raqamli interaktiv xaritalar darsni oddiy vizuallashtirish vositasidan zamonaviy ilmiy-tadqiqot va muammoli ta'lim mexanizmiga aylantiradi. Bu esa bo'lajak kadrlar zaxirasida axborot-tahliliy fikrlash madaniyati poydevorini maktab davridayoq shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Geografiya o'qituvchilarini malaka oshirish va qayta tayyorlash kurslariga maxsus amaliy GIS modullari hamda raqamli kartografiya darslarini integratsiya qilish.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun ochiq va milliy o'quv dasturlariga to'liq moslashtirilgan geo-ta'limiy resurslar hamda bulutli platformalarni yaratish.
3. 9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darsliklari hamda mashq daftarlariga matnli topshiriqlar bilan bir qatorda raqamli xaritalar va QR-kodli geoportallar bilan ishlashga mo'ljallangan keys-topshiriqlarni kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baranov A. S., Suxorukov V. D. Metodika obucheniya geografii: uchebnik dlya vuzov. - Moskva: Izdatelstvo Yurayt, 2022. - 321 s.
2. Kerski J. J. The role of Geographic Information Systems in geography education // Journal of Geography. - 2019. - Vol. 118, No. 4. - pp. 143-152.
3. Mirzaliyev T., G'ulomov P. N. Geografiya o'qitish metodikasi. - Toshkent: Sharq, 2012. - 240 b.
4. Safarov E. Y., Musayev I. M. Geografik axborot tizimlari (GAT): oliy o'quv yurtlari uchun darslik. - Toshkent: Universitet, 2018. - 280 b.
5. Solem M., Klein P. Contextual factors associated with GIS implementation in secondary schools // Professional Geographer. - 2021. - Vol. 73, No. 2. - pp. 215-226.
6. Vahobov H., Alimkulov N. R. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash uslubiyoti // Pedagogik mahorat. - Buxoro, 2023. - № 3. - 88-93 b.
7. West B. A. Student attitudes and the impact of GIS on thinking skills and motivation // Journal of Geography and Higher Education. - 2020. - Vol. 44, No. 1. - pp. 76-94.
8. Yusupov M. K. Maktab geografiya ta'limida raqamli xaritalar bilan ishlash metodikasini takomillashtirish // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari. - Toshkent, 2024. - № 2/1. - 154-159 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.